



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TA'JIRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODELİ YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna	
Xolov Javlonbek Davronovich	
УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна	
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Абборовна	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich	
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li	
OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich	
“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIIY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov	



“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI



Jamshidbek Bobojonov
O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim
o‘zgarishi milliy qo‘mitasi
“Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishni
muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda “Yashil makon” umummilliy loyihasining 2026-yil birinchi yarim yilligidagi tashkiliy va amaliy natijalari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi ko‘kalamzorlashtirish parametrlari, ko‘chat ekish sifati, monitoring tizimi va jamoatchilik tashabbuslarining samaradorligini baholashdan iborat. Hujjatli tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. 2026-yil 6-iyul holatiga 81,4 mln tup ko‘chat ekilgani, bahorgi reja 108 foizga bajarilgani hamda 1 344 ta amaliy seminar va 1 022 ta ko‘chat-savdo yarmarkasi o‘tkazilgani aniqlangan. “Mening bog‘im” loyihasida 208 ta g‘olib tashabbusni amalga oshirish uchun 52 mlrd so‘m ajratilgan. Maqolaning ilmiy-amaliy yangiligi loyihaning miqdoriy natijalari bilan uning nazorat, parvarish va jamoatchilik ishtirokini ta‘minlovchi mexanizmlarini o‘zaro bog‘liq holda baholashdan iborat.

Kalit so‘zlar: “Yashil makon”, ko‘kalamzorlashtirish, ekologik barqarorlik, ko‘chat ekish, parvarish, monitoring, “Mening bog‘im”, jamoatchilik tashabbusi.

Аннотация: В статье проанализированы организационные и практические результаты реализации общенационального проекта «Яшил макон» в Республике Узбекистан за первое полугодие 2026 года. Цель исследования заключается в оценке эффективности параметров озеленения, качества посадки саженцев, системы мониторинга и общественных инициатив. В исследовании использованы методы документального анализа, статистической группировки, сравнительного анализа и системного подхода. Установлено, что по состоянию на 6 июля 2026 года было высажено 81,4 млн саженцев, план весеннего сезона выполнен на 108 %, а также проведено 1 344 практических семинара и 1 022 ярмарки по продаже саженцев. В рамках проекта «Мой сад» на реализацию 208 инициатив-победителей выделено 52 млрд сумов. Научно-практическая новизна статьи заключается в комплексной оценке количественных результатов проекта во взаимосвязи с механизмами контроля, ухода за насаждениями и обеспечения участия общественности.

Ключевые слова: «Яшил макон», озеленение, экологическая устойчивость, посадка саженцев, уход за насаждениями, мониторинг, «Мой сад», общественная инициатива.

Abstract: The article analyzes the organizational and practical results of implementing Uzbekistan's nationwide Yashil Makon project during the first half of 2026. The study evaluates greening targets, planting quality, monitoring arrangements, and the effectiveness of public initiatives. Documentary analysis, statistical grouping, comparative analysis, and a systems approach were applied. As of 6 July 2026, 81.4 million seedlings had been planted and the spring target had been achieved by 108 percent; 1,344 practical seminars and 1,022 seedling fairs had also been organized. A total of UZS 52 billion was allocated to implement 208 winning projects under the My Garden initiative. The practical novelty of the study lies in jointly assessing quantitative outcomes and the mechanisms of maintenance, oversight, and public participation.

Keywords: Yashil Makon, greening, environmental sustainability, seedling planting, maintenance, monitoring, My Garden, public initiative.



KIRISH

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi, yerlarning degradatsiyasi va cho'llanish jarayonlarining kuchayishi ekologik xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli aholi uchun sog'lom va qulay atrof-muhit yaratish, yashil maydonlarni kengaytirish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. «O'zbekiston — 2030» strategiyasining 66-maqsadida ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash va inson hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish vazifalari nazarda tutilgan [1].

Tadqiqot obyekti «Yashil makon» umummilliy loyihasini **2026-yil** birinchi yarim yilligida amalga oshirish jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa ko'chat ekish parametrlari, agrotexnik tadbirlar, raqamli monitoring, nazorat mexanizmlari va «Mening bog'im» loyihasi orqali aholi ishtirokini tashkil etish amaliyotidan iborat. Maqolaning maqsadi mavjud natijalarni tizimlashtirish, ularning samaradorligini baholash va keyingi bosqich uchun amaliy takliflarni ishlab chiqishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuning huquqiy va dasturiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-21-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston — 2030» strategiyasi tashkil etadi [1; 2]. Mazkur hujjatda respublikada ekologik holatni yaxshilash, ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini hududlar va sohalar kesimida tizimli tashkil etish hamda 2026-yilda jami 200 mln tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlari hamda qalamchalarini ekish vazifasi belgilangan.

Jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan «Mening bog'im» loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi «Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-199-son² qarori hujjati va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-martdagi «Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan «Mening bog'im» loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 156-son³ qarori asosida amalga oshirilmoqda [3; 4]. Ushbu mexanizm «Ochiq byudjet» axborot portali orqali fuqarolarga yashil bog'lar va yashil jamoat parklarini tashkil etish bo'yicha tashabbus bildirish hamda ularni ovoz berish yo'li bilan saralash imkonini beradi.

Mavjud hujjatlar tahlili ko'kalamzorlashtirish siyosatining uchta o'zaro bog'liq yo'nalishini ko'rsatadi: ko'chat ekish ko'lamini oshirish, ekilgan ko'chatlarning saqlanuvchanligini ta'minlash va jarayonga jamoatchilikni jalb qilish. Shu jihatdan mazkur maqola rasmiy hisobot ma'lumotlarini faqat son jihatidan emas, balki boshqaruv va nazorat mexanizmlari bilan birgalikda tahlil qiladi [5].

Ko'kalamzorlashtirish va urban ekologiya masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida keng o'rganilgan. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDG 11 va SDG 15) shaharlarning ekologik barqarorligini ta'minlash, yashil hududlarni kengaytirish hamda biologik xilma-xillikni saqlash ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan [6]. Mazkur yondashuv yashil infratuzilmani rivojlantirishni nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi sifatida ham baholaydi.

Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil hududlarning kengayishi atmosfera havosi sifatini yaxshilash, issiqlik oroli (urban heat island) ta'sirini kamaytirish, yog'in suvlarini tabiiy usulda boshqarish hamda aholining salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan [7; 8]. Shu sababli ko'plab davlatlarda daraxt ekish hajmini oshirish bilan bir qatorda ularning yashab qolish darajasi, parvarish sifati va monitoring tizimining samaradorligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar asosida ekologik monitoringni tashkil etish masalasi ham ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylandi. Global tajriba shuni ko'rsatadiki, geoinformatsion tizimlar (GIS), masofadan zondlash (Remote Sensing), sun'iy yo'ldosh tasvirlari hamda mobil ilovalar orqali daraxtlarning joylashuvi, rivojlanish holati va saqlanuvchanligini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati sezilarli darajada kengaymoqda [9]. Mazkur yondashuv davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, hisobotlarning ishonchligini oshirish hamda ekologik boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'kalamzorlashtirish dasturlarining muvaffaqiyati uchta o'zaro bog'liq omilga tayanadi: birinchidan, ilmiy asoslangan daraxt turlarini tanlash va agrotexnik talablarni bajarish; ikkinchidan, ekilgan ko'chatlarning uzoq muddatli parvarishi va saqlanuvchanligini ta'minlash; uchinchidan,

1 <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-6673808>

3 <https://lex.uz/docs/-6860237>



mahalliy aholi hamda fuqarolik jamiyati institutlarini mazkur jarayonlarga faol jalb etish [8; 9]. Shu jihatdan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan «Yashil makon» va «Mening bog'im» loyihalari xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan ekologik boshqaruv tamoyillari bilan uyg'unlashib, ularni milliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda hujjatli tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy taqqoslash va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan reja ko'rsatkichlari 2026-yil 6-iyul holatiga «yashilmakon.eco» elektron platformasiga kiritilgan amaliy natijalar bilan taqqoslandi. «Mening bog'im» loyihasining 2024–2026-yillardagi ko'rsatkichlari loyihalar soni, g'olib tashabbuslar, ajratilgan yer maydoni, barpo etilgan bog' va parklar hamda moliyalashtirish hajmi bo'yicha guruhlandi. Shuningdek, sifat nazoratini ta'minlovchi seminarlar, savdo yarmarkalari, xodimlar va texnik vositalar soni alohida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'chat ekish parametrlarining bajarilishi. 2026-yilda respublika bo'yicha jami 200 mln tup ko'chat va qalamcha ekish rejalashtirilgan bo'lib, shundan 75 mln tupi bahorgi va 125 mln tupi kuzgi mavsum hissasiga to'g'ri keladi [2]. 2026-yil 6-iyul holatiga respublika bo'yicha 81,4 mln tup daraxt va buta ko'chatlari ekilgan. Bu bahorgi mavsum rejasining 108 foizga bajarilganini anglatadi. Miqdoriy ko'rsatkichning ortig'i bilan bajarilishi loyihaning hududiy shtablar orqali keng ko'lamda tashkil etilganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. «Yashil makon» loyihasining 2026-yil birinchi yarim yilligidagi asosiy ko'rsatkichlari⁴

Ko'rsatkich	Reja	Amaliy natija	Izoh
Yillik ko'chat ekish hajmi	200 mln tup	Bahorda 81,4 mln tup	Yillik rejaning kuzgi qismi davom etadi
Bahorgi mavsum rejas	75 mln tup	81,4 mln tup	108 foiz
Amaliy seminarlar	—	1 344 ta	Ekish va parvarishlash bo'yicha
Ko'chat-savdo yarmarkalari	—	1 022 ta	Narxlar barqarorligi va ta'minot uchun
Nazoratga jalb qilingan xodimlar	—	564 nafar	526 ta planshet va 96 ta namlik o'Ichagich bilan

Sifat va parvarishni ta'minlash mexanizmlari. Loyihaning barqaror natijasi faqat ko'chat ekish hajmi bilan emas, ularning to'g'ri tanlanishi, agrotexnik talablarga muvofiq ekilishi va keyingi parvarishi bilan belgilanadi. Shu maqsadda hududlarda 1 344 ta amaliy seminar tashkil etilgan va ko'chat narxlarining barqarorligini ta'minlash uchun 1 022 ta ko'chat-savdo yarmarkasi o'tkazilgan. Nazorat tadbirlariga 564 nafar xodim jalb qilinib, ular 526 ta planshet va 96 ta namlik o'Ichagich bilan ta'minlangan. Bu raqamli ma'lumotlarni joyidagi holat bilan solishtirish va parvarishga oid kamchiliklarni tezkor aniqlash imkonini beradi.

Hududiy yashil infratuzilma. 2026-yil 1-aprel kuni Toshkent shahriga tutash Toshkent va Qibray tumanlarida barpo etilayotgan «Dendrologiya bog'i»da o'tkazilgan umummilliy tadbir doirasida respublika bo'yicha 168,5 gektar maydonga 21 mingga yaqin fuqaro ishtirokida 88 ming tup ko'chat ekilgan. Mahalliy hokimliklar, tashkilot va idoralar tomonidan 50 tadan ziyod yashil bog'lar tashkil etilgan. Farg'ona viloyati Quva tumani Karkidon hududiga olib boruvchi yo'l bo'ylab 7,1 km masofada 7 ming tupdan ortiq manzarali ko'chat ekilib, yashil belbog' barpo etilgan. Ushbu obyektlar aholi uchun dam olish muhitini yaxshilash bilan birga, chang, shamol, shovqin va transport chiqindilarining ta'sirini pasaytirishga xizmat qiladi.

Nazorat va ma'lumotlarni tasdiqlash. Ekilgan ko'chatlarni saqlash va parvarishlashni nazorat qilish uchun Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi va Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi xodimlaridan iborat ishchi guruhlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Hududiy shtablar tomonidan elektron platformaga kiritilgan ma'lumotlar ekologik nazorat inspektorlari va prokuratura organlari tomonidan joyiga chiqqan holda o'rganilmoqda. Bunday yondashuv raqamli hisobot, idoralararo nazorat va joyidagi tekshiruvni yagona tizimda birlashtiradi.

«Mening bog'im» loyihasining dinamikasi. 2024-yilda jamoatchilik tashabbusi bilan shakllantirilgan 789 ta loyihadan 212 tasi g'olib deb topilgan. Ular uchun 140,1 gektar yer maydoni ajratilib, 128 ta yashil bog' va 84 ta yashil jamoat parki tashkil etilgan. 2025-yilda 570 ta tashabbusdan 156 tasi g'olib bo'lib, 104,9 gektar maydonda 89 ta yashil bog' va 67 ta yashil jamoat parki barpo etilgan. 2026-yilda esa 610 ta loyiha taklifi shakllantirilib, 152 ming 200 ta ovoz berilgan va har bir tuman hamda shahardan bittadan jami 208 ta loyiha g'olib deb topilgan. Ularni amalga oshirish uchun 52 mlrd so'm ajratilgan (2-jadval).

4 Manba: Muallif ishlanmasi.

2-jadval. “Mening bog‘im” loyihasining 2024–2026-yillardagi natijalari⁵

Yil	Takliflar	G‘oliblar	Yer maydoni	Barpo etilgan obyektlar	Qo‘shimcha ma‘lumot
2024	789 ta	212 ta	140,1 ga	128 ta bog‘, 84 ta park	Ovoz berish orqali
2025	570 ta	156 ta	104,9 ga	89 ta bog‘, 67 ta park	Loyiha-smeta asosida
2026	610 ta	208 ta	Ma‘lumot keltirilmagan	Loyihalash jarayonida	152 200 ovoz; 52 mlrd so‘m

Tahlil natijasi ko‘kalamzorlashtirish siyosatida davlat rejalari va aholi tashabbuslari bir-birini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi. Bir tomondan, umummilliy loyiha yirik hajmdagi ko‘chat ekish va nazorat tizimini ta‘minlasa, ikkinchi tomondan, “Mening bog‘im” mahalliy ehtiyojlardan kelib chiqqan loyihalarni fuqarolar ovozi asosida tanlash imkonini bermoqda. Ayni paytda 2026-yilgi g‘olib loyihalar bo‘yicha “Yashilloyiha” loyihalash instituti tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilayotgani ularni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish keyingi bosqichning asosiy vazifasi ekanini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2026-yil birinchi yarim yilligida “Yashil makon” umummilliy loyihasi bo‘yicha bahorgi ko‘chat ekish rejasi ortig‘i bilan bajarilgan, agrotexnik o‘quvlar, savdo yarmarkalari, raqamli monitoring va idoralararo nazorat choralari yo‘lga qo‘yilgan. “Mening bog‘im” loyihasi esa fuqarolarning hududlarni obodonlashtirishdagi ishtirokini kuchaytirib, mahalliy tashabbuslarni davlat mablag‘lari bilan qo‘llab-quvvatlashning amaliy mexanizmiga aylangan.

Tahlil asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, hududlar faoliyatini baholashda ekilgan ko‘chatlar soni bilan bir qatorda ularning saqlanuvchanlik darajasi va parvarish holatini asosiy samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida belgilash; ikkinchidan, “yashilmakon.eco” platformasida geolokatsiya, sana belgilari va davriy fotomonitoringni yagona standart asosida yuritish; uchinchidan, suv tanqis hududlarda iqlim va tuproq sharoitiga mos turlarni tanlash hamda suv tejovchi sug‘orish usullarini keng joriy etish; to‘rtinchidan, “Mening bog‘im” loyihalarining loyihalash, qurish va foydalanishga topshirish bosqichlari haqida jamoatchilikka muntazam ochiq ma‘lumot berish; beshinchidan, ko‘chat ekishdan keyingi kamida uch yillik parvarish mas‘uliyatini manzilli ravishda belgilash maqsadga muvofiq.

Umuman, “Yashil makon” loyihasining uzoq muddatli samarasi miqdoriy ko‘rsatkichlarni bajarish, ekilgan daraxtlarni asrab qolish, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish va ochiq monitoringni ta‘minlashning **o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq**. Har bir saqlab qolingani daraxt aholi salomatligi, shaharlar iqlimi va mamlakatning ekologik barqaror kelajagiga qo‘shilgan amaliy hissadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-199-son qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6673808>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-martdagi “Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan “Mening bog‘im” loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 156-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-6860237>
4. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York: United Nations.
5. United Nations Environment Programme. (2021). Making Peace with Nature: A Scientific Blueprint to Tackle the Climate, Biodiversity and Pollution Emergencies. Nairobi: UNEP.
6. World Bank. (2022). The City Climate Finance Gap Fund: Annual Report 2022. Washington, DC: World Bank.
7. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2020). Global Forest Resources Assessment 2020: Main Report. Rome: FAO.

5 Manba: Muallif ishlanmasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>